



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 9-avgust, shanba,
90 (24.116)-son

O'zbek xalq
maqoli

Kishi
aybiga etak
yor

Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

YUNESKOning 43-sessiyasiga besh mingdan ortiq mehmon keladi

Joriy yil oktyabr oyining so'nggi kunlaridan noyabr oyining birinchi yarmigacha Samarqand shahrida BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi o'tkaziladi.

So'nggi 40 yil ichida birinchi marta YUNESKOning Parij shahridagi qarorgohidan boshqa joyda o'tkazilishi belgilangan bu voqea tashkilotning 80 yilligiga to'g'ri kelgani bilan ham ahamiyatlidir.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 15-martdagi qaroriga ko'ra, mazkur tadbirga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tashkiloti qo'mita tuzilib, zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tashkilot qo'mita tomonidan sessiya bilan bog'liq tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish yuzasidan ishchi guruhlar tuzilib, tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Sessiya ishtirokchilarining kelishi va ketishi, ularga viza rasmiylashtirish, transport va tibbiy xizmatlar ko'rsatish, asosiy tadbirlar va madaniy dasturlarda qatnashishlari masalalari YUNESKO bilan kelishgan holda hal qilinmoqda.

Shu yilning 12-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Fransiyaga davlat tashrifi doirasida YUNESKO bosh direktori Odri Azuleni qabul qilib, tashkilot Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

Sessiya va asosiy tadbirlar "Silk Road Samarqand" sayyohlik majmuasida o'tkaziladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 43-sessiya va uning doirasidagi tadbirlarda 194 davlatdan 5 mingdan ortiq ishtirokchi kelishi kutilmoqda. Birgina YUNESKO kotibiyatidan 400 nafar xodim keladi. Shuningdek, davlat rahbarlari, xalqaro tashkilotlar yetakchilari, vazirlar va elchilar Samarqandda jam bo'ladi. Hozircha uch davlat rahbari sessiyada ishtirok etish istagini bildirgan.

Nufuzli delegatsiyalar, tadbir ishtirokchilari



rini joylashtirish uchun "Silk Road Samarqand" majmuasidagi 8 mehmonxonada 1176 ta, Samarqand shahridagi 130 ta mehmonxonada 4178 ta xona ajratilib, forum kunlari uchun band qilib qo'yilgan.

Bundan tashqari, Toshkent, Buxoro, Xiva va Shahrisabzda madaniy tadbirlar, ekskursiyalar va qabullar o'tkazilishi hisobga olinib, bu shaharlarda ham mehmonxonalar tanlangan, delegatsiyalarga transport va boshqa xizmatlar ko'rsatilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Sessiya doirasida YUNESKOning Yoshlar forumi, milliy komissiyalar yig'ilishi, ilk bor Beruniy nomidagi O'zbekiston-YUNESKO mukofotini topshirish marosimi, muzeylarda sun'iy intellektning o'rni bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkaziladi. Bundan tashqari, Samarqanddagi tarixiy-madaniy yodgorliklar, muzeylar, madaniyat maskanlarida xalqaro ko'rgazmalar, yangi ekspozitsiyalar namoyishi, jahon yulduzlari ishtirokida konsert dasturlari, umuman, 150 dan ortiq tadbir rejalashtirilgan.

43-sessiya va boshqa tadbirlarni yoritish uchun Samarqandga keladigan mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlarini belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkazish va ularga zarur shart-sharoit yaratish borasida ham choralar ko'rilmoqda. "Silk Road Samarqand" majmuasi hududida matbuot markazi tashkil etiladi.

G. HASANOV.

Viloyatimizda keng kўlamli qurilish-bunёдkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Yўl-transport, muхандslik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan taъminlangan yangi aхоли yashash manzillari, dam olish maskanlari, сайёхлик obьektlari, taъlim va tibbiёт muassasalari barpo etilmoqda.

Жумладан, Самарқанд шаҳри, Тойлок, Ургут ва Булунгур туманларида "Янги Ўзбекистон" массивлари бунёд этилди ва бу тadbirlarning кўлами йилдан-йилга кенгайиб бормоқда. Уй-жой шароитини яхшилашга муҳтож бўлган оилаларни давлат томонидан манзилли қўллаб-қувватлаш мақсадидаги давлат дастурлари доирасида 2024 йил вилоятимизда 11541 хонадонли 153 та кўп қаватли уй қуриб, фойдаланишга топширилди.

Президентимизнинг 2025 йил 21 февралдаги "Уй-жой ва ипотека бозорини янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги фармони асосан жорий йилда ҳудудларда 12500 хонадонли 179 та уй-жой қуриш режалаштирилган. Биргина "Янги Ўзбекистон" массивларида 4781 та хонадондан иборат 65 та уйни қуриб фойдаланишга топшириш белгиланган.

Бугунги кунда 179 та уй қурилиш соҳасида назорат инспекцияси рўйхатидан ўтган ва қурилиш ишлари давом этмоқда. Шу пайтгача 1862 хонадондан иборат 34 та уй фойдаланишга топширилди.

2025 йил инвестиция давлат дастурига асосан вилоятимизда 76 та умумтаъ-

10 август - Қурувчилар кuni

Меҳнати машаққатли, савоби улўғ



лим мактаби (74 та реконструкция, 1 та янги, 1 та мукамал таъмирлаш) ва 28 та мактабгача таълим ташкилоти (22 та реконструкция, 5 та янги, 1 та мукамал таъмирлаш) обьектларида қурилиш ишлари амалга оширилмоқда.

Бундан ташқари, "Абу-Дабӣ тараққиёт фонди" кўмағида Самарқанд шаҳрида тунел қурилиши давом этмоқда, темирйўл орти ҳудудида реновация дастури асосида замонавий кўп қаватли уйлар қурилиши бошланди. Самарқанд шаҳрининг Окдарё ва Самарқанд туманлари билан туташ қисмида 600 гектардан ортиқ майдонда "Ширин" замонавий ишбилармонлик маркази ва тураржой мажмуалари қурилишига киришилди. Пайариқ туманидаги Имом Бухорий зиёратгоҳида улкан қурилиш ишлари якунига етказилмоқда.

Қурилишни коррупциядан холи соҳага айлантириш йўлида дастлабки босқичда "шаффоф қурилиш" тизими ишга туширилди ва фойдаланиб келинмоқда. Бу тизим соҳада ҳақиқий фидойиларни саралашда қўл келди.

Уй-жой сотиб олувчиларнинг пуллари ни кафолатли ҳимоялаш мақсадида жорий йилнинг 27 январь кuni Президентимизнинг "Уй-жой қурилиши соҳасини янада

ривожлантириш, турар ва нотурар жой обьектларини улуш киритиш асосида қуриш жараёнини тартибга солиш механизмларини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони қабул қилинди. Ушбу фармон турар ва нотурар жой обьектларини улуш киритиш асосида қуриш жараёнини тартибга солишга қаратилган аниқ механизмларни белгилаб берди.

Бир сўз билан айтганда, бугун қурилиш жараёнлари ҳам замонга, одамлар талабига мослашиб, қулайлик, мукамаллик, ҳавфсизлик асосий мезонга айланди. Ана шу мезонларни фаолиятининг асосига айлантириб, меҳнат қилаётган қурувчи-бунёдкорларимизни касб байрамлари билан табриқлаймиз!

Баҳодир НЕГМАТОВ,
вилоят қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бош бошқармаси бошлиғи.

ИНДАЛОСИНИ АЙТГАНДА

Абдусайд КўЧИМОВ,
Ўзбекистонда хизмат
кўрсатган журналист:

- Улуғ сиймоларнинг
гўзал сўзлари, мақол
ва маталлар, фольклор
намуналари биз
яратаётган
асарлардан ўн
чандон бой.



Qo'shrabot graniti

xorijga eksport qilinadi

Qo'shrabot tumanida xitoylik investor bilan hamkorlikda tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "SI TONG STONE" xorijiy korxonasi faoliyat boshladi.

-2024-yil yanvar oyida davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi cho'g'ida mazkur loyihani amalga oshirish bo'yicha dastlabki kelishuvga erishilgandi, - deydi Qo'shrabot tumani hokimi o'rinbosari Shohjahon Haydarov. - Shu asosida 10 gektar yer maydoni ajratilib, o'tgan yil avgust oyida zavod qurilishi boshlandi. Loyihaning umumiy qiymati 40 million AQSh dollari bo'lib, uch bosqichda amalga oshirilmoqda. Birinchi bosqichda granit toshdan turli xil o'lchamdagi plitkalar va devorboq materiallar ishlab chiqarilmoqda. Keyingi bosqichlarda granit tosh qoldiqlarini qayta ishlash va undan zamonaviy qurilish mahsulotlari tayyorlash ko'zda tutilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, korxonada mahsulotlari ichki bozordan tashqari eksportga yo'naltiriladi va hozirdanoq Rossiya va Qozog'istonga granit toshlar yetkazib berish bo'yicha shartnomalar imzolangan. Umuman, zavod yiliga 10 million dollarlik eksportni amalga oshirish va budjetga 13,2 milliard so'm qo'shimcha tushum ta'minlash imkoniyatiga ega.

- Biz Qo'shrabotga kelib o'rganganimizda bu yerda juda katta granit tosh zahiralari borligiga guvoh bo'ldik va bu ushbu korxonani tashkil etishimizga asos bo'ldi, - deydi "SI TONG STONE" xorijiy korxonasi rahbari Lian Xuling. - Bir yil davomida bino va inshootlarni qurib, o'zimizda ishlab chiqarilgan zamonaviy texnologiyalarni keltirib o'rnatdik. Hozir korxonada 100 ga yaqin ish o'rni yaratilgan bo'lsa, keyinchalik ish o'rinlari soni 300 tagacha yetadi. Zavod yiliga 2,2 million kvadrat granit toshni qayta ishlash quvvatiga ega.

Dehqonlarimiz tajribasi

qo'shni viloyatdagilarga namuna bo'ldi



2025-yilda urug'lik g'o'za maydonlarida dala aprobatsiyasi ko'rigini o'tkazish va joriy yilda urug'lik don tayyorlashga bag'ishlangan hududiy ko'rgazmali o'quv-amaliy seminar bo'lib o'tdi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi, agrar soha tashkilotlarining rahbarlari, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy va Samarqand viloyatlarini hokimlarining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosarlari agronom-mutaxassislar, urug'chilik sohasi faollari dastlab Samarqand shahridagi "Anjizor" agroturizm loyihasi bilan tanishdi.

So'ngra Oqdaryo tumanidagi "Oqdaryo ko'chatchilik invitro" laboratoriyasida ko'chatchilikni rivojlantirish, yangi payvandtaglar yaratish borasidagi ishlar haqida ma'lumot berildi.

Seminar ishtirokchilari Ishtixon tumanidagi "Maroqand sifat tekstil" paxta to'qimachilik klasterida paxtani qayta ishlash jarayonlari bilan tanishdi. "Ishtixon oltin yerlari" fermer xo'jaligi dalalarida xorijiy g'o'za navining Shinjon usulida yetishtirish texnologiyasi ko'rsatildi.

Kattaqo'rg'on tumanidagi "Kattaming urug'chilik klasteri" mas'uliyati cheklangan jamiyatida urug'lik don tayyorlash va urug'lik donni sovt-kichik omborlarda saqlash jarayonlari ko'zdan kechirildi.

- Kattaqo'rg'on tumanida 1000 gektar yerda g'alla ekamiz va ekish paytidayoq agronomlarimiz tomonidan aniq maydonlar belgilanadi, zaruriy agrotexnik ishlar vaqtida amalga oshirilayotgani doimiy monitoring qilinadi, - deydi "Kattaming urug'chilik klasteri" MCHJ rahbari Farhod Hamroyev. - G'alla o'rilib, sig'imlarga yetib kelguncha doimiy nazoratda bo'ladi. Bu urug'lik begona nav aralashmasi bilan yoki bir xil urug'likni boshqa avlod urug'ligi bilan aralashib ketishining oldini oladi. Biz har bir navdagi urug'lik g'allani yopiq sig'imlarda qabul qilamiz. Bir oy davomida tinim davri o'tkaziladi, keyin yuqori avlodli navlar qayta ishlanadi. Bunda dastlab urug'lik g'alla besh bosqichli elakdan o'tkazila-

Seminar



di, keyingi jarayonda standartdan katta va kichik hajmdagi urug'lik don ajratiladi. Umuman olganda, ishlab chiqarish liniyamizda urug'lik dondan boshqa to'qqiz xil ajratma ajratiladi va urug'lik don dorilashga o'tkaziladi. Bundan ham sifatli urug'lik tayyorlash uchun sentabr oyida Xitoydan urug'likni fotosintez qiladigan optik foto separator uskunasi keltirib o'rnatiladi. G'allakorlarimiz hozirgacha gektaridan o'rtacha 70-80 sentner hosil yetishtirishgan bo'lsa, bu uskunada saralangan urug' hosildorligi gektariga 100-120 sentnerni tashkil qiladi.

Seminar ishtirokchilari bu yerda urug'lik donlarini saralash, tayyorlash va ularni zamonaviy, sovt-kichik omborxonalarda saqlash jarayonlari bilan tanishdi. Xususan, hosil sifati, urug'ning biologik ko'rsatkichlari va standart talablarga muvofiqligini baholash jarayonlari mutaxassislar ishtirokida ko'rib chiqildi.

Seminar yakunida agrar tarmoq rahbar va mas'ullari sohadagi tajribalari, yuqori hosil yetishtirish, suv tejash va paxtadan gektariga 65 sentnerdan ortiq xomashyo tayyorlash imkoniyatlarini bildirishdi. Mutaxassislar bu borada fermer va ishchilarga kerakli tavsiya va amaliy ko'rsatmalar berdi.

Seminarida viloyat hokimi o'rinbosari B.Jabborov ishtirok etdi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Deputatlik bu faqatgina parlamentda qonunlar yozish yoki minbarlarda nutq so'zlash emas, xalqning dardiga darmon bo'lish bilan amalga oshadigan faoliyat hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, har oy yakunida parlament vakillari qog'ozlardan xoli holatda aholi, ya'ni saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazadi. Parlamentdagi maqomidan haqiqiy hayot sari yo'nalgan e'tibor egalari bu safar gapirish bilan chagaralanmaydi, tinglaydi, takliflar tayyorlaydi, masalalarga yechim topadi. Qisqa qilib aytganda, odamlarni rozi qilish yo'llariga bosh uradi. Chunki deputat unga ovoz bergan xalqning qo'li, tili va yuragidir.

Xalq koriga yaraydigan natija

Urgut, Bulung'ur, Jomboy - bu Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi yana bir deputatning uchrashuv o'tkazgan hududlari ro'yxati. O'zXDP fraksiyasi a'zosi Jamol Ochilovning o'tgan hafta yakunida viloyatdagi saylovchilar bilan o'tkazgan o'ndan ortiq uchrashuvda 15 ga yaqin masala ko'tarildi. Aholi vakillari bandlik, tibbiy xizmat, davolanish uchun yo'llanma, ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash kabi kundalik hayotiy ehtiyojlari yuzasidan murojaatlar qildi. E'tiborlisi, murojaatlarning asosiy qismiga joyida yechim topildi. Tuman hamda viloyat darajasidagi masalalar esa belgilangan tartibda va vaqtda hal etiladigan bo'ldi.

- Har safar hududlarga uchrashuvlarga chiqqanimda baxtli, xotirjam yashash uchun yurtdoshlarimizga ko'p narsa kerak emasligiga takror va takror guvoh bo'laman, - deydi deputat Jamol Ochilov. - Kimdir ishga kirishda yordam so'rasa, yana kimdir ko'chasini asfaltlashda ko'mak kutadi. Deputat esa xalq xizmatchisi, unga yordam qo'li yetib borishi uchun muhim vositachi. Bu ishlar bir bolaning maktabga qiyinchiliksiz qatnashi uchun yo'lni asfaltlashirishdan tortib, onaxonning tibbiyot maskaniga tez hamda oson yetib olishi bilan bog'liq barcha masalani qamrab oladi. Ba'zida esa davlat idorasidagi biror muammoni hal etish, ayrim hollarda mahallaga suv olib kelishga ko'maklashish ham ishimizning bir qismi sanaladi. Xalq bizga parlament devorlari ichida yozgan qonunlarimizdan ko'ra, ularning hayotiy ehtiyojlarini

ta'minlashga bosh qo'shish masalasidagi xizmatlarimizga qarab baho beradi. Og'zaki va dalarimiz, hujjatlarni tasdiqlashimiz emas, amaliy natijalar ularda ishonchni oshiradi.

Masalan, Jomboy tumani-dagi holatni olaylik. Ijtimoiy himoya milliy agentligining "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarga vaucher asosida nogironlik aravachalarini buyurtma berish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Biroq bu amaliyot ba'zi muammolarni ham qarshimizga chiqarmoqda. Gap shundaki, hozirgi kunda berilayotgan aravachalar 110 kilogramgacha bo'lgan kishilarga mo'ljallangan. Natijada ushbu vazndan ortiq bo'lgan shaxslar ulardan foydalana olmayapti. Shu sababli fuqarolarning ehtiyojlarini o'rgangan holda tadbirkorlarga buyurtma berish tizimini yo'lga qo'yish kerak, deb o'ylayman.

Ikkinchi bir masala shuki, agentlikning "Inson" markazi tomonidan yoshga doir pensiya oluvchi er va xotinlarga sanatoriya ro'yxatga bir vaqtda ariza topshirilgani hisobga olinib, ayni sanalarga belgilangan tartibda yo'llanmalar berish tartibini joriy qilish haqida ham murojaatlar bo'ldi. Ushbu masala yuzasidan "Inson" markazlari fuqarolar bilan kelishib, ularning ehtiyojlarini o'rgangan holda yo'llanma ajratsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, menimcha. Bu borada tegishli tashkilotlarga takliflarimizni berdik. Umid qilamanki, navbatdagi uchrashuvlar ham xalq koriga yaraydigan natijalar bilan nihoyalanaadi.

Sog'liqni saqlash tizimida xalqimizga munosib xizmat ko'rsatish, ishonchni oqlash va adolat tamoyillariga tayangan tizim yaratish barchamizning umumiy maqsadimizdir.

Korrupsiya jamiyatimiz rivojiga to'siq bo'layotgan jiddiy muammolardan biri sifatida hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli viloyatimizda ham ushbu illatga qarshi murosasiz kurashish, barcha tibbiyot muassasalari faoliyatida ochiqlikni ta'minlash hamda inson omili bilan bog'liq salbiy holatlarni bartaraf etish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, **korrupsiyaga qarshi kurashish — umummilliy vazifa, har bir yurtdoshimizning vijdon ishi. Korrupsiyaga jamiyat tanasidagi saraton sifatida qarash kerak**".

Binobarin, har bir tibbiyot xodimi, har bir muassasa rahbari o'z mas'uliyatini qat'iy his qilib, shaffoflik va halollikni bosh mezon qilishi zarur.

Afsuski, hozirgi kunda ham ayrim muassasalarda byurokratik to'siqlar, manfaatlar to'qnashuvi, ta'magirikabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa fuqarolarimizning tibbiyotga bo'lgan ishonchini sindirib qo'yadi.

Shu bois viloyatimizda ham tibbiyot tizimini raqamlashtirish, ishga qabul qilishni shaffoflashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ochiq ma'lumotlar platformasini keng joriy etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda **32572,7 milliard so'mlik bozor xizmatlari ko'rsatildi (2024-yilning shu davriga nisbatan 112,3 foiz).**

Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanmoqda

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ulush yashash va ovqatlanish sohasiga to'g'ri kelib, ushbu yo'nalishda 10297,7 milliard so'mlik xizmatlar ko'rsatildi. Savdo 5345,9 milliard so'm, transport xizmatlari 5816,2 milliard so'm, moliyaviy xizmatlar 3242,8 milliard so'mni tashkil etdi. Shuningdek, aloqa va axborotlashtirish sohasida 1249,5 milliard so'm, ta'lim sohasida 1235,8 milliard so'm, sog'liqni saqlashda esa 689,1 milliard so'mlik xizmatlar amalga oshirildi. Qolgan 4065,7 milliard so'm esa boshqa turdagi xizmatlarga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan xizmatlar hajmi 7 million 545,9 ming so'mni tashkil qildi.

Viloyatimizda xizmatlar sohasidagi ushbu ijobiy dinamika iqtisodiy salohiyatning oshishi va aholi turmush darajasining yuksalib borayotganidan dalolat beradi.

Nodir ABDIRAYIMOV,
viloyat statistika boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

Mikrohududdan tashqaridan qo'shimcha bola qabul qilish mumkinmi?

Mikrohududdan tashqaridan bolalar 1-sinfga qabul qilinishi mumkin. Faqat mikrohudud doirasidagi bolalar maktablarga qabul qilingach, ya'ni 1-avgustdan 31-avgustga qadar mikrohududdan tashqaridan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun umumta'lim maktabida bo'sh o'rin bo'lishi kerak. Xo'sh, bo'sh o'rin borligini qaerdan bilsa bo'ladi?

Arizalar an'anaviy tarzda qabul qilinadigan maktablarda bo'sh o'rin borligini direktor yoki qabul komissiyasi orqali bilsa bo'ladi.

- 1-sinfga onlayn qabul qiladigan maktablarga arizalar my.maktab.uz yoki my.gov.uz davlat xizmatlari orqali yuboriladi. Ariza yuborilayotgan paytda bo'sh o'rin borligi platformada ko'rinadi. Agar maktabda 1-sinfga qabul bo'yicha bo'sh o'rin bo'lmasa, ariza yuborib bo'lmaydi, ya'ni yetarli-cha bola qabul qilingach, ariza berish to'xtatiladi. Hozircha viloyatda Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari hamda Toyloq, Samarqand tumanlari umumiy o'rta ta'lim maktablari bolalarni 1-sinfga onlayn qabul qiladi.

Onlayn navbatga qo'yilgan ariza beruvchi belgilangan muddatda o'z farzandi bilan mikrohududdan tashqarida bo'lgan umumta'lim maktabiga boradi. Qabul komissiyasi bir kun muddatda bolani mikrohududdan tashqarida bo'lgan umumta'lim maktabiga qabul qilish yoki qabul qilishni rad etishni bildiradi.

Maktabga qabul qilish rad etilgan taqdirda ariza beruvchiniy farzandi biriktirilgan mikrohudud doirasida umumta'lim maktabiga jalb etiladi. Biriktirilgan mikrohududdagi maktabda bo'sh o'rin bo'lmasa-chi, unda



nima bo'ladi, degan savol tug'iladi. Maktabda bo'sh o'rin bo'lmasa ham, mikrohudud doirasida istiqomat qiladigan bolalarning barchasi maktabga qabul qilinadi.

Shuningdek, o'quvchilar soni ko'p bo'lgan umumta'lim maktablarda mikrohududdan tashqaridan qo'shimcha bolalar qabul qilinmaydi.

Agar oila biror hududda vaqtincha turgan bo'lsa, bunday oila farzandlari 1-avgustdan so'ng mikrohududdan tashqari bo'sh o'rinlar bo'yicha umumta'lim maktabiga qabul qilinadi.

Joriy yil 8-avgust holatiga ko'ra, viloyatdagi umumiy o'rta ta'lim maktablariga barcha ta'lim tillari bo'yicha 81902 nafar bolalar 1-sinfga qabul qilingan. Qabul jarayoni davom etmoqda.

Jo'rabek ESHMURODOV,
viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

Ochiqlik va shaffoflik barchamiz uchun ustuvor vazifa



Yagona tibbiyot axborot tizimi (DMED) orqali tizimli monitoring yo'lga qo'yildi. Situatsion markaz orqali byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish us-tidan nazorat kuchaytirildi. Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilishda avtomatlashtirilgan tizim sinovdan o'tkazilmoqda.

Shu bilan birga, rahbar-kadrlar, shifokorlar, buxgalterlar, hamshtiralar va boshqa mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini mukammallashti-

rishga qaratilgan o'quv kurslari tashkil etilyapti. Bizga yuklanayotgan ishonch va mas'uliyatni oqlash uchun jamoatchilikning faol ishtiroki zarur.

Tibbiy xizmatdan foydalanayotgan fuqarolarning har bir fikri, har bir murojaati biz uchun juda muhim. Agar viloyatdagi tibbiyot muassasalari faoliyatida korrupsiyaviy holatlar, qonunga zid xatti-harakatlarga guvoh bo'lsangiz:

- vazirlikning "1203" qisqa aloqa raqami ;
- viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining 66 234 99 64 raqamli "Ishonch telefoni";

- 99 735 51 56 raqamli rasmiy telegram boti orqali o'z murojaatingizni yo'lashingiz mumkin.

Barcha murojaatlar batafsil o'rganilib, amaldagi qonunchilik doirasida tegishli choralar ko'rilishi ta'minlanadi.

Tizimdagi muammolarni hal qilish, sog'liqni saqlash sohasini takomillashtirish, fuqarolarga munosib xizmat ko'rsatish faqat birgalikda harakat qilsakgina amalga oshadi.

Barcha yurtdoshlarimizni hamkorlikka va faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishga chaqirib qolamiz!

Suhrob ZAYNIYEV,
viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i.



Аҳолининг турмуш даражаси ва иқтисодий фаровонлиги ҳар қандай жамият ривож учун асосий омил. Мустақиллик йилларида бу йўналишда катта ютуқларга эришдик. Бироқ ҳаёт шундайки, ҳар қанда ҳаракат қилмайлик, ечиладиган масалалар топилаверади.

Бугун жамиятимизда кузатилаётган олти муҳим муаммони атрофлича ўрганиб чиқдик. Уларни бартараф этиш учун аниқ ва амалий олти таклиф тайёрладик. Мухими, бу таклифлар қандай натижа беради, нималарга олиб келади, деган саволларга жавоб сифатида олти асосий йўналишни белгилаб олдик.

"ҲАЛОЛЛИК ВАКЦИНАСИ"ГА ЭХТИЁЖ БОР

Жамиятимиздаги муҳим масалалардан бири – маънавият ва маърифат тарғиботининг етарли даражада олиб борилмаётгани. Бу борада давлатимиз раҳбари томонидан аниқ ваазифалар кўйилган бўлса-да, амалиётда кўзланган самарга эриша олмаётимиз. Айниқса, аҳоли ўртасида "ҳалоллик вакцинаси", яъни пок виждон, адолат ва жавобгарлик ҳиссини шакллантириш жуда суҳт кетмоқда.

Вилоят маънавият ва маърифат маркази қошида камида 5 та иқтисослашган тарғибот гуруҳи ташкил этилиши зарур. Уларда фақат маърузачи эмас, балки турли соҳаларда тажрибага эга олимлар, диний уламо-лар ва бошқа зиёлилар қатлами иштирок этиши керак.

Ҳафталик бир кунини "Маънавий тарғибот кунини" деб белгилаш ва вилоят бўйлаб аҳоли билан очик мулоқотлар, савол-жавоблар, жонли суҳбатлар ўтказиш яхши самара беради. Чунки бу тadbирлар орқали одамлар дунёда ва юртимизда бўлаётган воқeалар, уларнинг сабаб ва оқибатлари ҳақида тўғри маълумотга эга бўлади. Миллий ва диний қадриятларимизни тушуниб, уларни сақлаш ва химоя қилишга қизиқиши ортади. Мухими, бепарволик камайиб, "ҳалоллик вакцинаси" тарқалади. Натижада жамиятдаги турли иллатлар, айниқса, коррупция каби салбий ҳолатларни бартараф этишда катта қадам қўйилади.

МАЪНАВИЯТ – ҚАЛБ ОЗИГИ

Вилоятимиз туман ва шаҳарларида маънавий-маърифий тарғибот ишлари ҳамон бир тизимга тушгани йўқ. Оқибатда айниқса, ешлар турли ижтимоий тармоқлардаги шубҳали маълумотларга ишониб, ахборотдан "заҳарланипти".

Шу боис ҳар ҳафта учун долзарб бир мавзу танланиб, ўша мавзу асосида қисқа ва таъсирли маънавий маърузалар матни тайёрланиши лозим. Бунда етакчи олимлар, психологлар ва бошқа мутахассислардан иборат махсус кенгаш ташкил этилиши мақсадга мувофиқ. Улар тайёрлаган маърузалар электрон тарзда маҳаллаларга юборилади ва маҳалладаги фаоллар, мутахассислар ёрдамида "Маънавият кунини" сифатида халқ орасида тарқатилади. Натижада одамлар нафақат ўз ҳудудида, балки мамлакатимиз ва дунёда бўлаётган ўзгаришлардан хабардор бўлиб боради. Янги ислохотларни тушунади, уларда фаол қатнашишга интилади. Асосийси, халқимизда миллий қадриятларимизни, урф-одатларимизни асраш ҳисси ошади.

Яна бир жиҳат, шунча ахборот тўфони ичида одамлар яхшини ёмондан, ҳақиқатни сохталикдан ажрата оладиган "иммунитет"га эга бўлади. Уларнинг ёт гоёлар, "фейк" хабарлар, ёмон ниятли тарғиботларга қарши туриши осонлашади.

МАХАЛЛАДА САРТАРОШ БЎЛСА, УЗОҚҚА БОРИЛМАЙДИ

Баъзан оддий хизматлар - китоб дўкони, сартарош-хона, тикувчилик цехининг яшаётган ҳудудимизда бўлгани ҳам турмушда катта аҳамият касб этади. Аммо айрим маҳаллаларда ҳалигача сартарошхона йўқ. Сочини олдириш учун одамлар йўлга чиқишга мажбур. Нега? Ахир бу муаммони ҳал этиш қийин эмас-ку! Бунинг учун маҳаллада аҳолининг сартарошга эҳтиёжини аниқлаб, ишни ташкил этиш кифоя. Бундан аввал, одамлар рози бўлади, ёш йигит-қизлар учун иш ўрни яратилади. Қолаверса, сартарошлик касбига қизиққан ёшларни бугунги мономарказларда ўқитиш имконияти бор.

"УЙДА ХИЗМАТ"ГА ЭХТИЁЖ БОР

Бугунги тезкор ҳаётда одамлар вақтини тежашга ўрганди. Биргина озик-овқат маҳсулотларининг уйга етказиб бериш хизмати жорий этилаётгани фуқароларга нафақат қўлайлик яратмоқда, балки иқтисодий эҳтиёгга айланади.

Ҳозир овқатланиш шохобчалари онлайн буюртма қабул қилиб, тайёр таомни эшиккача олиб келиб, тўй-маърака ёки оилавий тadbирларингиз учун махсус гуруҳ юбориб, барча хизматларни зиммасига оляпти.

Айниқса, аёллар ҳам ишлаётган бугунги замонда бу каби хизматлар нафақат фойдали, балки керак ҳам. Чунки бу хизмат кўрсатаётганлар учун – иш, уларнинг меҳнатидан фойдаланаётганлар учун – қўлайлик.

ЗЕИРАТ ТУРИЗМИ ҚАЛБИ ОЗИҚЛАНТИРАДИ

Самарқанд тарихий шаҳаргина эмас, маънавият маскани ҳам. Бу имкониятдан тўла фойдаланяпмизми? Йўқ. Имом Бухорий, Маҳдуми Ўзбeк, Шoҳи Зинда – бу номлар фақатгина мусулмонлар учунгина эмас, бутун инсоният учун муқаддас ва қадри.

Бу муқаддас ғойлар ҳақидаги китобларни турли тилларга таржима қилиб, ўша зиёратгоҳларнинг ўзида сотиш йўлга қўйилса, бу ҳам маънавий, ҳам иқтисодий фойда келтиради.

Назаримда Имом Бухорий мажмуаси қайта таъмирдан чиқарилиши, унинг очилиш маросимини халқаро миқёсда нишонлаш, бутун мусулмон оламини таклиф қилиш зарур.

Қолаверса, Имом Бухорий мажмуасидан Самарқанд шаҳри марказигача мунтазам автобус қатнови ташкил этилса, ҳам хорижлик, ҳам маҳаллий зиёратчиларга қўлай бўлади.

Меҳмонхоналардаги хизматлар халқаро даражага чиқарилиши керак. Чунки меҳмон биздан рози бўлиб кетса, албатта, яна қайтиб келади.

ТУРИЗМ ҚИШЛОҚЛАРИ – ЯШИРИН ҲАЗИНА

Дарҳақиқат, вилоятимизда ташкил этилаётган туризм қишлоқлари, туристик марказлар биз учун мисли қўрилмаган имконият. Аммо улардан фойдаланиш даражамиз анча паст.

Сайёҳ Самарқандга келдими, у фақат Регистон билан чекланиб қолмасин. Қишлоқларни кўрсин, урф-одатларимиз билан танишин, хунармандчилик маҳсулотлари тайёрланиш жараёнларига бевосита гувоҳ бўлсин.

Тажрибадан келиб чиқиб айтадиган бўлсам, аксарият ҳолларда хорижлик сайёҳлар халқимизнинг турмуш тарзи, миллий урф-одатлари ва қадриятларимизга қизиқади. Уларга бундай имкониятни яратиб беролмас, сайёҳларнинг Самарқандга қолиш кунлари узаяди. Бу эса қўшимча фойда, дегани. Яна, кўпроқ одам иш билан таъминланади, камбағаллик камаяди.

Қисқа қилиб айтганда, халққа яқин, замонавий ва маданий хизматларни жорий этиш вилоят тараққиётининг қалитига айланади.

Мамаюнус ПАРДАЕВ,

САМИСИ профессори, иқтисодиёт фанлари доктори. Ирода ПАРДАЕВА, СамДЧТИ доценти.



Ушбу мақоланинг юзага келишига ҳеч қандай сана ёхуд тадбир сабаб бўлган эмас. Камина бир даврада иқтидорли ҳамкасбим, меҳр қўйган укам ҳақида ниҳоятда илиқ сўзларни эшитгач, қўлимга қалам олдим. Чунки ҳамма касбда ҳам иқтидорлига, маҳоратлига тан бериш, уни қадрлаш ўша соҳанинг салоҳиятини белгилайди. Айниқса, айрим идораларда касб эгалари четда қолиб, ташкилотчилиги бор кишиларнинг раҳбарликка тайинланиши профессионал ходимлар кўнглига оғир ботяпти.

Гап адлия маслаҳатчиси, аслида Тойлоқ туманининг Боғизагон қишлоғида туғилиб ўсган Баҳром Эрматов ҳақида бормоқда. Камина собиқ иттифок бош прокуратураси прокурори сифатида Россиянинг Тюмень шаҳар прокуратурасида терговчи бўлиб ишлаётган бу йигит билан танишдим. Гарчи Тошкент (ҳозирги Миллий университет) давлат университети юридик факультетини битирган бўлса-да, Россия Федерацияси жиноят ва жиноят процессуал қонунчилигини аъло даражада билганига ҳавас қилганим. Шундан буён бу ҳамкасбимга меҳрим баланд.

Баҳром Бобоқулович кўп ўтмай

Ватанга қайтиб, Қарши шаҳар прокуратураси терговчилигига тайинланди. Иш фаолияти давомида нафақат маҳорати, балки қатъиятли феълени ҳам намойиш эта олди. Ҳамкасблари орасида тилга тушди. Шу сабабли вилоят прокуратураси тергов бўлими прокурори бўлди. Табиийки, кўп ўтмай, уни АКТ ижро органлари бўйича Тошкент маҳсус прокурори лавозимига тайинлашди.

Кечагидек кўз ўнгимда, Баҳромжон бу йўналишда прокурорларга хос чинакам жасорат кўрсатди. Унинг оммавий ахборот воситаларида, хусусан, телевидениеда қонунчилигимиз моҳияти тўғрисидаги суҳбатларини кўпчилик

ҲАР НЕ БАХТИНГ КАСБИНГДАНДУР

мароқ билан кузатар эди. У қонунлар моҳиятини одамларга мисоллар билан оддий қилиб тушунтирарди. Бундан ташқари, Б.Эрматов озодликдан маҳрум қилиш жойларида назоратни пухта ташкил этиш, маҳкумларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, улар учун оддий яшаш шарт-шароитлари яратилишига катта эътибор қаратди. Бу борадаги айрим қонунларимизга ўзгаришлар киритиш ҳақида таклифлар берди.

Баҳром Тошкент шаҳридаги Ҳамза, кейинчалик Мирзо Улуғбек туманлари прокурори бўлиб ишлаган кезларида ҳам ҳамкасбларига Жиноят кодекси, Жиноят-процессуал кодекси ва жиноят ишларини очиш ҳамда тергов қилиш йўллари бўйича катта билимга эга эканлигини намойиш этди. Вақт топди дегунча терговчилар билан самимий суҳбат қилишдан эринмаганлигини кўп бор эшитганман. Терговчининг асосий



вазифаси инсон тақдирига баҳо беришда хато қилмасликдир, деган шир билан ишлади.

Фақат бугина эмас, Б.Эрматов касбга бўлган фидойилиги, билимини Ўзбекистон Бош прокуратураси бошқармаси

бошлиғи бўлган пайтида ҳам давлат айбловчиларини тайёрлаш борасида намойиш қила олди. Уша даврада ҳам, ҳозир ҳам давлат қораловчиси олдида турган юскак масъулиятни тушунтириш зарурати бор эди. Чунки бундай прокурор нафақат қонунчилик тамойилларини, балки Олий Суд пленумлари қарорлари ва бошқа ислохотлар оқибатларини ҳам теран англаши зарур. Баҳромжон давлат қораловчиларини ана шу руҳда тарбиялашга ҳаракат қилди.

Б.Эрматовнинг Жиззах вилояти прокурорининг ўринбосари сифатидаги фаолияти ҳам ибратга лойиқ. Чунки у фаолияти давомида ҳамкасбларига ҳар бир ишга баҳо беришда билим ва малакадан ташқари адолат мезони бўлиши ҳам кераклигини амалда кўрсатиб борди. Адолатли қарор эса ҳаммага ҳам маъқул келармайдими. Шу сабабли айрим ишлар юзасидан жиддий тортишувлар сабабчилигига айланди. Шу боис раҳбарият уни Бекобод шаҳар прокурори ўринбосарлигига юборди ва ана шу ердан пенсияга чиқди.

Мен ҳамкасбимнинг таржимаи холини бежиз келтирмадим. Унинг машаққатли умр йўли ёш ҳамкасбларимизга ибрат бўлиши зарур. Негаки

Тошкентдан мактуб

бугунги кунда Баҳром Бобоқулович Ўзбекистоннинг адолатли, жасур адвокатларидан бири. У химиясидаги шахсга ваъда бермайди, ёлғор гапирмайди, усулли ва малакали ҳуқуқий ёрдам кўрсатади. Бинобарин, Баҳром Халифа Умарнинг «Адолат йўқ жойда – барака ҳам йўқ» деган гапини шир қилиб олган. Шунингдек, дунё ҳуқуқ-шунослигида рўй бераётган ўзгаришларни доимо таҳлил қилиб боради. Эҳтимол, шунинг учундир, кўплаб ҳамкасбларимиз иш жараёнидаги муаммолар юзасидан унга мурожаат қилишади.

Яширмайман, бундай илиқ сўзларни олдин ҳам давраларда эшитганман. Ҳар гал прокуратура соҳасида дилга яқин шундай укам, фидойи ҳамкасбим борлигиндан ғурурланман. Ва бундай инсонларнинг кўпроқ бўлишини истайман. Чунки Баҳромга ўхшаган билимли, адолатли адвокатлар қанча кўп бўлса, халқимизнинг овозгарчилиги шунча камаяди. Аксинча, адолатга ишончи кучаяди.

**Эркин АБЗАЛОВ,
3-даражали давлат
адлия маслаҳатчиси.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56



O'ZBEKISTON TRANSPORT, YO'L VA KAPITAL QURILISH, QURILISH INDUSTRIYASI XODIMLARI

KASABA UYUSHMASI VILOYAT KENGASHI JAMOASI

**Viloyatimizdagi barcha quruvchi-bunyodkorlarni kasb bayrami –
QURILISH SOHASI XODIMLARI KUNI
bilan samimiy tabriklaydi!**

**Jonajon O'zbekistonimizning yangi
qiyofasini yaratish, Vatanimizning yuksak
taraqqiyotini ta'minlash, hayotimizni
yanada obod va farovon etishda siz
azizlarning mehnatingizni hech narsa
bilan o'Ichab bo'lmaydi.**



**Qo'lingiz hech
qachon dard ko'rmasin,
mehnatingizning
rohatini ko'ring,
aziz bunyodkorlar!**

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Usmanov Davronga (2024-yil 28-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Temirov Abdullaga (2024-yil 25-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Jalilov Abdijabbarga (2024-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Amriddinov Shahzod Obidovich notarial idorasida marhum Samiyev Temirga (2013-yil 6-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Amriddinov Shahzod Obidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Fattayeva Zulayxoga (2025-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Eshbayev Shodiyor Toshmamatovichga (2025-yil 6-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Samandarova Martaba Mahmudovnaga (2020-yil 4-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 10-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshbaltayevich notarial idorasida marhum Djabbarov Burxoniga (2022-yil 23-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov

Alisher Toshbaltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 85-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Ruziyev Shuxrat Tilyavovichga (2022-yil 19-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdullaxon Soniy ko'chasi, 1-uy.

BEKOR QILINADI

Qo'shrabot tumanidagi "BARAKALI ZAMIN UZUMLARI" fermer xo'jaligining (STIR: 306337144) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

“Энг улуг, энг азиз” ВИЛОЯТ ТАНЛОВИДА ИШТИРОК ЭТИНГ!

Азиз ижодкорлар!

Самарқанд вилояти ҳокимлиги, Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси вилоят бўлими, вилоят маданият бошқармаси, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси вилоят бўлими, Ўзбекистон Бадий академияси вилоят бўлими, вилоят “Тасвирий ойна” ижодий уюшмаси ҳамда вилоят телерадиоканали Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг ўттиз тўрт йиллигига бағишлаб “Энг улуг, энг азиз” анъанавий танловининг вилоят босқичини эълон қилади.

Танловга “Ватан учун, миллат учун, халқ учун! деган бош ғояни ўзида мужжасман этган асарлар, мақола ва материаллар қабул қилинади.

Танловга қабул қилинган материалларда “Ўзбекистон – 2030” стратегияси, шунингдек, “Атроф-муҳитни асраш ва “яшил” иқтисодиёт йили” давлат дастурларининг ижроси, мазмун-моҳияти ва тарғиботи акс этганига алоҳида эътибор қаратилади.

“Энг улуг, энг азиз” вилоят танлови ғолиблари қуйидаги номинациялар бўйича мукофотланади:

- ёзувчи ва шоирларнинг бадий асарлари, журналистларнинг публицистик наشرлари;
- босма оммавий ахборот воситалари ходимларининг ижодий ишлари;
- оммавий ахборот воситаси сифатида рўйхатга олинган веб-сайтлардаги интернет-журналистика материаллари;
- телевидение ва радио ижодкорларининг материаллари;
- тасвирий санъат, фото асарлар ва дизайн ишлари;
- санъаткорларнинг юртни мадҳ этувчи куй ва қўшиқлари.

Ҳар бир номинация бўйича учтадан ўрин ажратилади.

Танловда иштирок этмокчи бўлганлар қуйидаги ҳужжатларни тақдим этишлари керак:

- муаллиф тўғрисида маълумотнома (объективка);
- муаллифининг фуқаролик паспорти нусхаси;
- номзоднинг манзили ва боғланиш телефон рақамлари.

Танловга 2024 йилнинг 1 августидан 2025 йилнинг 1 августигача бўлган давра расман чоп этилган адабий-бадий асарлари, газета-журналлар ва интернет наشرларида эълон қилинган мақолалар, радио ва телевидение каналларида эфирга узатилган материаллар, намойиш этилган тасвирий санъат ишлари ва фотоасарлар, куй-қўшиқлар қоғоз кўринишда ҳамда

электрон шаклда 2025 йилнинг 16 августигача бўлган муддатда қабул қилинади.

Танлов ғолиблари Ватанамиз мустақиллигининг ўттиз тўрт йиллик байрамига бағишланган тадбирлар доирасида аниқланади ҳамда қимматбаҳо совға ва диплом билан мукофотланади.

Танловда қатнашиш учун тақдим этилаётган намуналар ижодий уюшмалардан, ОАВ жамоаларидан, соҳалар бўйича нодавлат-нотижорат ташкилотларидан, шунингдек, мустақил ижодкорлардан электрон ҳамда босма шаклда Самарқанд шаҳри, Улуғ Турсунов кўчаси, 80-уй, вилоят Матбуот уйида қабул қилинади.

Қўшимча маълумотларни қуйидаги телефон рақамларидан олишингиз ҳамда ижодий ишларингизни йўналишлар бўйича тақдим этишингиз мумкин.

**Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси
вилоят бўлими – (93) 992 10 64;**

**Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси
вилоят бўлими – (66) 233 91 69;**

**Самарқанд вилояти
телерадиоканали – (66) 233 96 01;**

**Ўзбекистон Бадий академияси
вилоят бўлими – (91) 553 83 97;**

**Вилоят “Тасвирий ойна”
ижодий уюшмаси – (93) 996 96 16;**

**Вилоят маданият бошқармаси – (91) 549 50 51.
ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТА.**

Tariximizni o'rganamiz



Mingtepada qadimiy tanga va haykalcha topildi

Mingtepa yodgorligi Samarqand shahridan 20 kilometr shimoli-sharqda, Jomboy tumani Qoramo'yin mahallasining shimoli-g'arbida, Bulung'ur kanalining o'rta oqimida joylashgan.

Ushbu yodgorlik Sug'dning VII-VIII asrlarda yirik va muhim shahri bo'lganligini arxeologik topilmalar va madaniy qatlamlarning borligi tasdiqlaydi. Bu shahar siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan hamda Sug'd sivilizatsiyasining taraqqiyotida asosiy rol o'ynagan. Sharqdan kelgan karvonlar Mingtepa shahrida to'xtab, keyin Samarqandga kirib kelgan.

yodgorligi o'rnida bo'lgan.

G'o'bdin tog'ining janubiy etaklaridan, Bulung'ur arig'ining shimoliy tomonidan Sug'd vohasining "Kampir devor" nomi bilan mashhur bo'lgan mudofaa devori tog' va ariq o'rtasidan g'arbg'a tomon yo'nalishda o'tadi. Shaharni shimoli-sharqdan dushman hujumiga qarshi mudofaa tizimi ham tabiiy, ham sun'iy ravishda juda yaxshi geografik hududda joylashganligini ko'rsatadi.

Mingtepa shahri 40 gektarga yaqin bo'lib, dastlab 1983-yilda arxeolog X.Axunbabayev yodgorlikning yuzasi qismidan terib olingan kulollik idish namunalari asosida V-XII asrlar bilan davrlagan. So'nggi yillarda Samarqand arxeologiya instituti, Yaponiya-Kiyoto San'at universiteti va Berlin-Brandenburg fanlar akademiyasi ilmiy xodimlari bilan hamkorlikda olib borilgan muntazam arxeologik qazishma ishlari natijasida yodgorlikning dastlabki boshlanish sanasi milodiy III asrda paydo bo'lganligi isbotlanmoqda.

Yodgorlikni o'rganish jarayonida milodiy VII-VIII asrlariga oid paxsa va xom g'ishtdan qurilgan mahobatli uylarning o'rni aniqlangan. Ushbu uylarning o'rni ochishda arxeolog mutaxassislar ko'plab qadimgi uy-ro'zg'or buyumlari, kulollik idishlari va savdo-sotiqda ishlatilgan, Sug'd hukmdorlari tomonidan zarb qilingan mis tangalar topilgan. Bu topilmalar Mingtepaning aksariyat tangalari singari Xitoyning Samarqand bilan savdo aloqalari borligini ko'rsatadi.

Topilgan tangalar orasida bir tomonida er-xotin surati tushirilgan va sug'd afsonasi bilan turkiy tilda "Xatun" yozuvi bitilgan tamg'a tasvirini ko'rish mumkin.

Sug'dning barcha hududlari singari Mingtepa shahri ham VII-VIII asrlarda rivojlanishning cho'qqisiga yetdi. Uning shimoli-sharqiy qismida ilk o'rta asrlarga oid 103 ta hovli uylar, alohida zodagonlarning yozgi qarorgohlari, atrofi mustahkamlangan oddiy dehqon uylari, mavsumiy turarjoylar qurilganligi aniqlangan.

Husniddin RAHMONOV,
Samarqand arxeologiya instituti ilmiy xodimi.



Mingtepa yodgorligi joylashgan, mahalliy aholi tomonidan To'rtko'ltepa deb nomlanadigan ushbu yodgorlik ark, shahriston va rabot qismlaridan iborat. Obyekt markazi yumaloq shaklda bo'lib, o'lchami 125x125 metr, balandligi 20 metr bo'lgan hukmdor qarorgohi joylashgan. Unga kirish sharq tomondan bo'lib, ikkala yonida ikkita qo'riqchi minoralari orqali ko'tarma (pandus) yordamida kirilgan.

Shahriston qismi hukmdor qarorgohining shimoli-sharqida joylashgan bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklda, tomonlari 400x200 metr, balandligi 8 metrga teng bo'lgan mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Janubiy mudofaa devori hukmdor qarorgohining g'arbiy qismida joylashgan rabot qismiga ulanib ketgan. Ushbu devor qoldiqlari shahar mudofaa-sining muhim, ajralmas elementi hisoblanadi.

O'rta asr arab geograflari tomonidan Zarafshon daryosining o'ng tomonida 6 ta rustoq borligi yozib qoldirilgan. "Rustoq" tushunchasi bugungi kunda toman markazi sifatida tushuniladi. Ushbu rustoqlardan biri Kobud rustoqi bo'lib, arxeolog olimlar tomonidan

Mingtepa yodgorligi o'rnida ekanligi manbalar va arxeologik topilmalar orqali isbotlangan.

Kobud rustoqi Maymurg' va Abgar rustoqlari qatori arablardan oldingi davrlarda alohida mavqega ega bo'lganligi aytiladi. Barkat, Kobud va Vidar shaharlari o'rta asr yozma manbalarida markaziy Kobud shahri tarkibida bo'lganligi qayd qilingan. Keyingi davr manbalarida Samarqand bекligi beshta tumandan iborat bo'lganligi, jumladan, Abu Tohirxo'janing "Samariya" asarida Shavdor, Anhor, Sug'udi Kalon, Ofarinkent va Kobud tumanlari tilga olinadi. Zarafshon daryosining shimolidagi dasht hudud Kobud tumani deb ataladi va bu dashtlik boshdan-oyoq shimol tog'iga yondoshdir. Shimol tog'i deyilganda aynan G'o'bdintog' tizmasi nazarda tutilgan.

Kobud rustoqining tarixiy o'rni haqida arxeolog X.Axunbabayev ham bir qator ma'lumotlar keltirgan. Uning yozishicha, Kobud hozirgi Jomboy va Bulung'ur tumanlari chegarasidagi G'azira va Qorapichoq qishloqlaridan janubi-sharqda joylashgan ilk o'rta asr va o'rta asr yodgorliklari ulkan majmuasini tashkil etgan Mingtepa

Mulohaza



Tozalik kutma, uni o'zing boshla!

Yo'q, bu shunchaki shior emas, avvalo, o'zinga eslatma o'laroq qog'oz qoralayapman.

"Maroqand obod" davlat muassasasi ma'lumotlariga ko'ra, har kuni Samarqand shahridan 600-700 tonna maishiy chiqindi tashib ketilarkan. Uning 20 foizi belgilanmagan joylarga tashlangan chiqindilarni tashkil etadi. Mutasaddilarning qayd etishicha, bugungi kunda yo'l chetida, ko'p qavatli uylar atrofida, kanal yoqalarida chiqindi to'planishi odatiy holga aylangan.



Bolalarga maktabda tozalikka avvalo, o'zi mas'ulligi uqtiriladi, hatto darsdan so'ng sinfni o'quvchilar tozalaydi. Uyda, ko'cha-ko'yda odamlar bo'shagan suv idishi yoki muzqaymoq o'rnamini duch kelgan joyga uloqtirmay, xonadoniga olib kelib, maxsus paketlarga joylaydi. Kelajak avlodga ibrat ko'rsatadi.

Bizda-chi? Bizda esa ko'pchiligimiz chiqindini istagan joyga tashlab ketaveramiz. Natijada bog'cha yoki maktab hovlilarida, istirohat bog'lari va boshqa dam olish maskanlarida, ko'cha chetlari va ariqlarda ham turli xil chiqindilarni ko'rishimiz mumkin.

Biz o'zimiz-ku ibrat bo'lmaymiz. Hech bo'limganda, ariqqa yoki ko'cha chetiga chiqindi tashlayotgan qo'shniimizga bu ishi noto'g'riligini aytish o'rniga "menga nima?" deb e'tiborsiz bo'lamiz. Maktab o'quvchisi banan po'chog'ini yerga tashlaganini ko'rsak, "ha, endi bola-da" deb qo'yamiz.

Aslida bular shunchaki qilmish emas, jamiyatdagi umumiy ong darajasining aksidir.

Chiqindi konteynerlari bor, tozalikni targ'ib etishga qaratilgan aksiyalar o'tkazilyapti, obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ammo qachonki butun ko'cha, mahalla, shahar ahli saranjom-sarishta yashashga o'rgansa, obodlik har birimizga bog'liqligini his qilsa, yurtimiz toza-ozoda bo'ladi. Bu jamoaviy tarbiya, umumiy ong masalasi.

Chiqindi tashlashdan avval o'yab ko'raylik: bu yurt bizning yuzimiz, bu yerda biz yashaymiz.

Olim SONNIBOYEV.

Luqma



Raxbar xar jabxhada urnak b'lishi kerak

Бугун ижтимоий тармоқ кўпчиликининг юзига ойна тутди. Хонанда саҳнада одобсизлик килса, айримлар блогерман, деб ҳаётини кўз-кўз қилишни одатга айлантдири. Албатта, булар вақт хукмига боғлиқ масала. Вақти келиб, сараги сарак, пучаги пучакка ажралиб қолади. Аммо бундай одобсизлар ичда айрим раҳбарларнинг ҳам кўриниб қолаётгани мени ташвишга солади.

Халқимизда "Кишини синамоқчи бўлсанг, амал бер" деган ғурмаёно хикमत бор. Яхши деб юрганми э айрим кишилар ҳам амал текканида босар-тусарини билмай, ўзининг

асл ҳолатини кўрсатиб кўяётгани ачинарли. Тушунаман, кўпчиликининг ташвиши, одамларга бош бўлиш масъулияти баъзида оғир келади. Аммо бу ҳар қандай ҳолатда ҳам ёшми, кексами – истаган одамни ҳақорат қилиб, унинг обрўсини тўкишга баҳона бўлмайди. Одатда, бундай раҳбарлар халқнинг меҳрини қозона олмайди,

уларнинг бошини кўшиб, бирор жойни обод қилиши ҳам дарғумон. Раҳбар аввало, атрофидаги кишиларга хулқи билан ўрнак бўлсагина катта ҳам, кичик ҳам унга ишонч билдиради, ёнма-ён меҳнат қилишдан фахр туяди.

Турди ТУРСУН,
меҳнат фахрийси,
Пайариқ тумани.

Ноила бу хонадонга келин бўлиб тушганида бунчалик хўрланаман, деб ўйламаганди. Қайнонаси уни ўғлим билан бахтли бўлсин, қўша қарисин деб эмас, мону дунёга очкўзлигини қондириш учун восита сифатида келин қилганини англади.

- Келин, қаердасиз?
- Лаббай, аяжон! - Ноила кўлидаги супургини ташлаб, югуриб келиб, кўл қовуштириб турди.
- Хабарингиз бор, яқинда туғилган куним. Ота-онангизга айтинг, мана бу рўйхатда мен ёзган совгаларни олиб келишим. Куруқ кўл билан сўппайиб келишимасин. Меҳмонлар олдида уялиб қолмайин...
- Эна, бу нима деганингиз, туғилган кун сизникими, қанақа совға истасангиз, мана, мен олиб бераман. Қудаларингиз сизни талабингизни бажарамиз, деб кулоқларига қарзга ботишган, сал уялсангиз бўларди! - ишга отланаётган Қодир хижолат бўлиб, онасига қаради.
- Сен жим бўл, бир ҳафта бўлмасдан хотинчангнинг тарафини олиб қолисанми? Сенга алоҳида буюртма бор, кейин айтаман, -Хосият буви елпигич билан елпиниб, кўлидаги рўйхатни Ноилага узатди. - Олинг, нега қоққан қозикдай қаққайиб қолдингиз?
Ноила қарахт бўлиб қолди. Қайнонаси рўйхат қилиб берган совгалар озмунча пул турадим, бечора ота-онаси

Қайнона



қаердан топади?
- Ҳа, айтгандай, кир ювиш машинасини ҳам ёддан чиқаришимасин.
- Эна, кир ювиш машинаси бор-ку! - деди Қодир.
- У эскирган, янги чиққанидан олиб келишим...
Кечқурун ишдан қайтган Қодир Ноиланинг афтига қараб

эзилиб кетди:
- Чарчадингми? Рўйхатни етказдингми?
- Қодир ака, қандоқ қилиб айтаман. Яқиндагина онангиз совуткич олдинганди. Энди эса совға, кир ювиш машинаси. Отам бечора мени ўйлаб, ғинг демапти. Ахир инсоф борми аянғизда?
- Нима, сен ҳали мени энамга тил теккизясанми? У менинг онам, билдингми? Чидасанг шу! Чидамасанг, ана, эшик очик.
Қодир кўлидаги сочикни зарда билан улоқтириб, нариги хонага чиқиб кетди...

- Отаси, энди нима қиламиз?
- Ҳа, яна нима бўлди? - ишдан чарчаб келган Қодир ака уф тортиб, кўзлари ёшланган хотинига қаради.
- Қизингиз Ноила кўнғироқ қилди. Бечора бола адои тамом бўлди. Нафси ўлқон қайнонасининг жигилдонини тўлдираман, деб юзи шувит, ҳаммасига ўзини айбдор деб эзилади. Нима бўлса ҳам оиласи бузилмасин, деб қайнонасини бошимизга чиқариб юбордикми, дейман?! Қачон кўзи тўяр экан бу кампирнинг. Кўнгли қолмасин, деб бўғзимизгача қарзга ботдик. Яқинда кўёвга кредитга машина олиб бердик. Энди эса қизимиз оғир аҳволда шифохонада ётганимиз. Шифокорлар "тез ёрдам"да олиб кетишибди. Ҳомиласи нобуд бўлибди. На қайнонаси, на эри хабар олибди. Ота-онаси даволатишин дебди.
- Қўрмамаклар! - Қодир ака тутуқиб кетди. - Қандай қилиб, ёлғиз қизимизни жаҳаннам азобига ташладик-а? Юр, тез хабар олайлик.
- Қизим, ўлим билан олишиб, бир ой касалхонада ётдинг. Қайнонанг сени одам ўрнида кўрмади. Энди бормайсан,

Турмуш чорраҳаларида



онанг билан яшайсан. - Қобул ака ранги сўлғин қизининг бошини силади. -Дўхтирлар жавоб беришди, юр кетамиз...
Хосият буви Ноила касалликка чалинган, Қодирни бошқа қизга уйлантирди. Тонг ёришганда уйғониб, ташқарига чикди. Ҳаммаёқ жим-жит. Одатда бу пайтда Ноила ҳовлини супуриб, нонушта тайёрлаб, хонтахта устига дастурхон ёзиб қўярди. "Янгида хали, майли, бугунча дам олсин". Лекин эртаси ҳам, ундан кейин ҳам янги келин тонгда туриш, уй ишларини бажаришни хаёлига келтирмасди. Қодир ишга кечикмаслиги учун нонуштасиз кетадиган бўлди. Уй-рўзгор ишлари, овқат қилиш, супуриш-сидириш кампирнинг ўзига қолди. "Ҳа, шомша, оймқиз, совунига кир ювмасан".
Хосият буви келиннинг ётоғи эшигини таққиллатди:
- Ҳой, келин, туринг, тонг ёришиб кетди. Ҳовли-жойни супуриб, нонушта тайёрлаб, Чиллангиз чиққандир.
Эшик очилиб, останада янги келин кўринди. Ширин уйқусини бузган қайнонадан унинг жаҳли чиққанди. Қодир аллақачон уйғониб ишга кетганди.
- Ҳой, кампир, ўзингиздан ўзингиз нима деб валдираяпсиз? Мен сизга чўримамми, уйқунинг ҳам белгига тепдингиз! - у қарс этиб эшикни ёпиб, ётоққа кириб кетди.
Қайнонанинг бошидан бир челақ сув куйгандек, нафаси ичига тушиб, жойида қотиб қолди: "Эй худо, қандай кунларга қолдим-а қандай келимин бор эди-я? Нафс балосига йўлиққан молпараст қайнонагни кечир, Ноила!"

Тоғаймурод ШОМУРОДОВ.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 829 nusxada chop etildi. Buyurtma 372. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda